



**15-16 APREL
2022**

**TOSHKENT
O‘ZBEKISTON**

**“GEOGRAFIK TADQIQOTLAR: INNOVATSION G‘OYALAR
VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI”**

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
G.O. MAVLONOV NOMIDAGI SEYSMOLOGIYA INSTITUTI**

O‘ZBEKISTON GEOGRAFIYA JAMIYATI

**“TADQIQOT.UZ”
XALQARO ILMIIY JURNALLAR PORTALI**

**GEOGRAFIK TADQIQOTLAR:
INNOVATSION G‘OYALAR VA RIVOJLANISH
ISTIQBOLLARI**

**II
XALQARO ILMIIY-AMALIIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI**

TO‘PLAMI

Toshkent - 2023

Geografik tadqiqotlar: innovatsion g'oyalar va rivojlanish istiqbollari:
II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plam (15–16-aprel, 2022-yil,
Toshkent). –Toshkent.: TADQIQOT.UZ, 2023. – 847 bet.



<http://doi.org/10.5281/zenodo.4751426>

To'plamda keltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalaridan tabiiy geografiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik, tashqi iqtisodiy faoliyat, turizm, gidrologiya, gidrometeorologiya, geologiya, geodeziya, kartografiya hamda geoinformatika sohalaridagi mutaxassislar, ilmiy xodimlar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistratura va bakalavriat talabalari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilari hamda geografiya faniga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Tahrir kengashi:

g.f.d., professor Hikmatov F.H.
g.f.d., katta ilmiy xodim Rafiqov V.A.
g.f.n., dotsent Sharipov Sh.M.

Kengash a'zolari:

g.f.n., dotsent Tashtayeva S.K.
g.f.n., dotsent Shomurodova N.T.
PhD, dotsent Shomurodova Sh.G'.
PhD, dotsent Prenov Sh.M.
PhD, dotsent Raxmonov D.N.
PhD, dotsent Raxmonov K.R.
PhD, dotsent Umirzoqov G'.O'.

Mas'ul muharrir:

Ibragimov Sh.U.

©Mualliflar jamoasi

©tadqiqot.uz

QUMQO‘RG‘ON TUMANINING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHI

Pardayev Shavkat Baxtiyor o‘g‘li

magistrant

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

e-mail: shavkatpardayev95@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqola tumanning geografik o‘rni, tarixiy rivojlanishi, aholisi va bandlik, tuman xo‘jaligi tarmoqlari tarkibi, tuman infratuzilmasi, rivojlanishidagi muammolar, rivojlanish istiqbollari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: aholisi, tarixi, sanoat tarmoqlari, iqtisodiyoti, tabiiy sharoiti, aholi bandligi, xizmat ko‘rsatish.

SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT OF KUMKURGAN DISTRICT

Pardayev Shavkat

Annotation: This article analyzes the geographical location of the district, its historical development, population and employment, the structure of the district's economy, the district's infrastructure, development problems, development prospects.

Keywords: population, history, industries, economy, natural conditions, employment, services.

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi darajasini yaxshilash, mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning pirovard maqsadlaridan biridir. Mustaqilligimizning dastlabki yillaridan boshlab, Surxondaryo viloyatida ham kompleks ijtimoiy-iqtisodiy, yer-suv, agroiklim, mineral-xomashyo, mehnat resurslari salohiyatidan samarali foydalanishga katta e‘tibor qaratib kelmoqda. Bularning natijasi o‘laroq aksariyat viloyat tumanlarining mavjud salohiyati asosida ularni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari ishlab chiqilib, hayotga tatbiq qilinmoqda.

Ma‘lumki, har qanday hududni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, eng avvalo, uni har tomonlama o‘rganishni, istiqbolda uning mavjud salohiyatidan oqilona foydalanish asosida xo‘jalik ixtisoslashuvini takomillashtirishni, aholi bandligini oshirishni va natijada hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini yuksaltirishni nazarda tutadi .

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ushbu ishning bosh maqsadi Surxondaryo viloyatida o‘zining iqtisodiy ko‘rsatchilari bilan alohida o‘rin tutuvchi

Qumqo'rg'on tumanini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida sanoatni tutgan o'rni va rolini ochib berishdan iborat.

Qumqo'rg'on tumani 1977-yil 23-martda tashkil etilgan. Tuman hududi 2,1 ming km², aholisi 241 ming kishi, shundan 125 mingi mehnat resursi, iqtisodiy faol aholi 97,3 ming, band aholi 87,5 ming hamda ishsizlar soni 9 ming kishini tashkil etadi. Qumqo'rg'on janubi-sharqda Tojikiston Respublikasi va boshqa tomondan esa Sariosiyo, Denov, Oltinsoy, Sho'rchi, Uzun, Jarqo'rg'on, Qiziriq, Bandixon va Boysun tumanlari bilan chegaralanadi.

Tumanda aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari 2021-yilda 2020-yilga nisbatan o'sish 108,6% ni va 2022 yil 1-yanvar holati bo'yicha 526,3 mlrd so'mni tashkil etdi. Hozirgi paytda sanoat sohasida 280 ga yaqin kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari mavjud.

Qumqo'rg'on tumanida yirik ishlab chiqarish korxonalaridan Paxta-to'qimachilik klasteri hamda G'alla klasterini ta'kidlashimiz mumkin. Tumanda ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlari soni jami 1694 tani tashkil etib, shulardan 1530 ta faol, 115 ta nafaol, yangi tashkil etilganlar soni esa 312 taga yetdi, ish faoliyatini tugatganlar esa 136 tani tashkil etmoqda (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz) (2021-yil 1-yanvar holatiga ko'ra).

Bugungi kunga kelib shahar va qishloq aholi punktlarining zamonaviy me'moriy qiyofasini shakllantirish, uy-joy va ijtimoiy-maishiy qurilishni jadal rivojlantirish, muhandislik-kommunikatsiya va yo'l-transport infratuzilmasini yangilash hamda rekonstruksiya qilish bo'yicha amalga oshirilgan kompleks choratadbirlar shaharlarning arxitektura-loyihalashtirish tizimini sezilarli darajada yaxshilash imkonini berdi.

Qumqo'rg'on tumanini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish nafaqat uning iqtisodiyotdagi samaradorligini oshirish, balki iqtisodiyotning mintaqaviy nisbatlarini yaxshilash uchun ham katta ahamiyatga ega va umuman mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

11. Soliyev A. O'zbekiston geografiyasi . Darslik T. :“Universitet” 2014.
12. Soliyev A., Nazarov M., Qurbonov Sh. O'zbekiston hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. T.-: “Mumtoz so'z”, 2010.
13. Atamirzayev O., To'xtaliyev N. O'zbekiston tabiati, aholisi va iqtisodiyoti. “ O'zbekiston ensiklopediyasi”-T., 2009.
14. Soliyev A. va boshqalar. Mintaqaviy iqtisodiyot.- T.,-2003.

Axborot manbalari

15. www.geogr/msu.ru
16. <http://www.geografiya.ru/>
17. www.uzgeo.uz